

HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASI SOHASIDA MILLIY GVARDIYA SOHASI AHAMIYATI

Otajanova Shohista Bog'ibek qizi
IIV Akademiyasi 308-guruh kursanti

KIRISH: Profilaktika inspektori jamoat tartibini saqlashda bevosita milliy gvardiya hodimlari bilan ishlaydi. Bu soha xodimlari o'z navbatida ichki ishlar organlarining patrul post xizmatlari bilan bir xil vazifani bajarishadi. Profilaktika inspektori o'z navbatida mahalla huquq tartibot maskanidagi faoliyati ham milliy gvardiya xodimlari bilan bevosita bog'liq bo'lib ular bilan bir qator tadbirlar olib borishini ham hisoblanasak bo'ladi. Milliy gvardiya sohaviy xizmati mahalla huquq tartibot maskanidan tashqari kocha va boshqa jamoat joylarida, tadbir va bayram vaqtlarida ham agarda profilaktika inspektori hududiga to'g'ri kelsa hamkorlikda nish olib boradi. Hamkorlik eng avvola ish samaradorligini va fuqorolar daxlsizligi va xavfsizligini taminlashda muhim ahamiyat kasb qiladi.

Mavzuning dolzarbligi: Prezident Shavkat Mirziyoyev turli jinoyatchiliklarning asosini jamiyat axloqiy, ma'naviy va ruhiy holatida ko'radi. Kriminogen holatlar ildizini qidiradi. Davlat rahbarining axloqqa doir siyosati Prezident sifatidagi siyosiy axloq konsepsiyasini belgilaydi. Siyosiy axloq bevosita boshqaruv madaniyati, rahbarlik odobi, millat va davlat sha'ni bilan bog'liq bo'lgan milliy oriyat va milliy nafsoniyat bilan bog'liq bo'lgan g'oyatda keng miqyosli hodisa darajasiga ko'tariladi. Darhaqiqat, qaysi jamiyatda rahbar odobi kuchli bo'lsa, unda fayz, baraka yalpi jamiyatning umumiy kayfiyati sog'lom bo'ladi. Natijada siyosiy axloq axloqiy siyosatning tayanchiga aylanadi. Bu bevosita **sharqona boshqaruv madaniyati, bir necha ming yillik davlatchilik tajribalarimizning zamonaviy sivilizatsiya sharoitidagi yangi ko'rinishi sifatida ko'zga tashlanadi.**

Shavkat Mirziyoyev keng miqyosli islohotlar jarayonida oila mustahkamligi, oila muhitining sog'lomligi, ota va onaning farzand tarbiyasi bilan bog'liq majburiyatlari muammolariga alohida e'tibor bilan qaraydi. Oilaviy nizolar, ayollar jinoyatchiligi holatlariga alohida e'tibor beradi. Ijtimoiy-maishiy muammosi bor oilalar bilan alohida, doimiy va uzluksiz ishlash davlat idoralarining birinchi galdagi vazifasi bo'lib qolishini hamisha ta'kidlaydi. Darhaqiqat, **oila – kichik davlat. Boshqacha qilib aytganda, oila – makrodavlat ichidagi mikrodavlat. Har bir oilaning o'z tarbiyaviy muhiti, yashash qonuniyatlari, talablari va ehtiyojlari bor. Bu qonuniyatlar, talablar va ehtiyojlar, albatta, umummilliy va umumijtimoiy manfaatlar bilan uyg'un bo'lishi lozim.** Ana shundagina butun jamiyat sog'lom va barkamol bo'ladi. Bu – oson ish emas. Chunki hamma oiladagi ma'naviy, axloqiy va ruhiy muhit bir xil emas. Uni muvofiqlashtirib turadigan, nazoratga oladigan holatlar

ham mavjud. Shu maqsadda Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etildi. Og‘ir hayotiy ahvolga tushgan, kam ta‘minlangan, xususan, tarbiyaviy va axloqiy jihatdan muammosi bor oilalar bilan alohida ishlash, ular bilan shug‘ullanish maqsadida “Ijtimoiy xizmat ishi” yo‘lga qo‘yiladigan bo‘ldi. Kriminogen oilalar bilan alohida ishlaydigan, “Xavfsiz oila” tamoyili asosida faoliyat yuritadigan tizim yo‘lga qo‘yiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi (bundan buyon matnda Milliy gvardiya deb yuritiladi) O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari qo‘shinlarining jamoat xavfsizligini ta‘minlash va huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida huquqni muhofaza qilishga doir ayrim vazifalarga ega bo‘lgan maxsus turidir.

huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;

huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir dasturlarni ishlab chiqadi, tasdiqlaydi va amalga oshiradi;

huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiradi, shu jumladan mazkur huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlaydi, bartaraf etadi;

huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi boshqa organlar hamda muassasalar bilan hamkorlik qiladi.

Milliy gvardiya sohalari boshqa normative hujjatlarda belgilangan boshqa vazifalarni ham bajarishi mumkin.

Milliy gvardiyaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari hamda qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish;

terrorizmga qarshi kurashishda, shuningdek terrorchilik harakatlarining hamda tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etishda ishtirok etish;

tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirish, surishtiruv o‘tkazish, jinoyat ishlarini qo‘zg‘atish va ma‘muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritish;

davlat obyektlarini, o‘ta muhim, toifalangan obyektlarni hamda boshqa obyektlarni, jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkini qo‘riqlash;

qo‘riqlash faoliyati sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish;

huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish, shu jumladan mazkur huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish;

jamoat tartibini saqlash, shu jumladan ommaviy tadbirlar, mitinglar, yig‘ilishlar, namoyishlar o‘tkazilayotganda hamda fuqarolar gavjum bo‘ladigan joylarda jamoat tartibini saqlash;

favqulodda holat, alohida davr va terrorchilikka qarshi operatsiyalarni o'tkazish sharoitlarida huquqiy rejimni ta'minlash;

qo'riqlanadigan shaxslarning xavfsizligini ta'minlashda ishtirok etish;

chet davlatlarning rasmiy vakillarini, oliy darajadagi xorijiy delegatsiyalarni kutib olishda va kuzatib qo'yishda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ishtirokidagi tantanali tadbirlar chog'ida rasmiy marosimlarni o'tkazish;

huquqbuzarliklarning oldini olish, ularni aniqlash va ularga chek qo'yish maqsadida aholi punktlaridagi jamoat joylarida patrullik qilish;

O'zbekiston Respublikasining hududiy mudofaasi tizimida O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarini jangovar qo'llash rejalari bo'yicha maxsus vazifalarni hal etish, O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmatining Chegara qo'shinlariga O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasini qo'riqlash hamda himoya qilishda ko'maklashish.

XULOSA: O'rganish natijalari shuni ko'rsatdiki, aksariyat jinoyatlar viloyatlarning 8-10 mahallasi hissasiga to'g'ri kelgan. Shu bois kriminogen jihatdan nisbatan og'ir mahallalarda Milliy gvardiya bilan uzviy hamkorlik yo'lga qo'yildi. Jinoyatlar muntazam sodir etib kelinayotgan mahallalar tanlab olinib, ularda qo'shimcha patrullik yo'nalishlari tashkil etildi. Natijada joriy yilning o'tgan davrida jami mahallalarning 66 foizida yoki 9 ming 145 mahalladan 6 ming 61 tasida bironta ham jinoyat sodir etilmadi. Har bir mahallani jinoyatdan holi hududga aylantirish maqsadida Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi hamda Milliy gvardiya bilan hamkorlikdagi ishlar ham tizimli ravishda davom ettirilmog'da. Zo'rovonlikdan jabr ko'rayotgan xotin-qizlarga himoya orderi berish joriy etildi. Huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida Milliy gvardiya xizmati bevosita ichki ishlar organlari xodimlari bilan ayniqsa profilaktika inspektori bilan uzviy bog'likda ish olib boradi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023-yil

Ichki ishlar organlari to'g'risidagi qonun 2016-yil 16- sentabr

Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risidagi qonun 2014-yil 14-may

2021-yil 26-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni.

2020-yil 18-noyabr kunidagi "O'zbekiston Respublikasi Milliy Gvardiya to'g'risida"gi 647-son qonuni